



Numanova Mashkhura
Andijon davlat chet tillar instituti
Ingliz tili o'qitishning integrallashgan kursi kafedrasasi o'qituvchisi

TARJIMA NAZARIYASI VA TANQIDIY MUAMMOLAR

Tarjimashunoslik ilmi keng sohalarini qamragan hamda har bir sohaning o'ziga xos bo'lgan tarjima xususiyati va farqliklari bor. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida barcha tur va janrlar qatori badiiy tarjima amaliyotida ham o'sish-o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, asliyat tilidan tarjima iziga tushayotgani quvonarli hol. Bu borada yoshlarning o'z iqtidorini sinovdan o'tkazayotgani, Sharq va G'arb xalqlari adabiyoti namunalarini bevosita ona tilimizga o'girishda dadil kirishayotgani katta umid uyg'otadi.

XX asrga qadar "tarjima" so'zi faqat tarixiy, falsafiy, adabiy va badiiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanib kelingan. Og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiy xalqlarda "tilmoch", nemis tilida "dolmetechen", ingliz va fransuz tillarida "interpret" atamalari qo'llanilgan. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo'sinda umumiy ma'no kasb etgan. Tarjima nazariyasiga bag'ishlangan ilk tadqiqotlar o'tgan asrning 20-30 yillarda yuzaga kela boshladi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng o'tgan o'ttiz ikki yil davomida badiiy ijodning barcha sohalarida bo'lgani kabi tarjima nazariyasi va amaliyotida ham o'zgarish va yangilashlar ro'y berdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan tarjima va tarjimashunoslari minbari "Jahon adabiyoti" (1997) jurnali tashkil etilib, o'z faoliyatini boshladi. Atoqli adabiyotshunos olim va tarjimashunos Ozod Sharafiddinov boshchiligidagi ushbu jurnalda dunyo adabiyotining eng sara asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib bosildi. Eng muhimmi, jurnal tahririyati asliyatdan tarjima amaliyotiga keng yo'l ochib berdi. Ayni paytda "Jahon adabiyoti" jurnalida tarjima nazariyasi va tanqidiga doir mazmunli maqola hamda suhbatlarning bosilayotgani ijod va ilm ahliga manzur bo'lmoqda. Hozirgi zamonda tarjima amaliyoti ilmga asoslanadi. Albatta, ijod jarayonida instuitsyaning o'z o'rni hamda salmog'i yo'q emas. Ilm tarjimaning to'laqonli va ishonchli chiqishiga yo'l ochadi. Tarjimashunoslik va uning tarkibiy qismiga aylanib borayotgan, ammo hali o'zini to'la namoyon qilib ulgurmagan tarjima tanqidi ilm turidir. Bu ilm tilshunoslik, grammatik, stilistik, semantika, belgishunoslik kabilalar bilan yaqin aloqa bog'lab, yaqin hamkorlik qiladi. Hozirgi kunda tarjima yo'nalishi rivojlanishiga qaramay, uning rivojiga turki bo'ladigan tadqiqotlar juda ham kam. Bu esa bevosita tarjima tanqidida sustkashlikni keltirib chiqarayotgan sabablardan biri. Tarjimonlarni rivojlantirish va tayyorlash uchun ilmiy-nazariy tomonidan bevosita sohaga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar va turli lug'atlar yetishmasligi kuzatiladi. Hozircha foydalanimizda kelinayotgan o'quv qo'llanmalarda tarjimashunoslilikning barcha jihatlari qamrab olinmagan. Shu sababli ham ushbu yo'nalishga oid tanqidiy fikrlarning rivojlanishi, adabiy jarayonning eng qizg'in jabhalaridan biriga aylanishiga sabab bo'ladi.

Tarjima tanqididagi sustkashlik oqibatida bugungi kunda xorijiy tillardan o'girilayotgan ko'plab tarjima asarlar o'zining bahosini olayotgani yo'q. Kitob holida chop etilayotganlarida hatto qaysi tildan tarjima qilingani ham ba'zan ko'rsatilmaydi. Tarjima nazariyasi va tanqidiga oid ilmiy tadqiqotlar, qo'llanmalar kerak deb bekorga aytilmayapti. Tarjima tanqidchiligining hozirgi ahvoli deyarli talabga javob bermaydi. Gazeta va jurnallar, tahririyatlar taqdim etayotgan tarjima asarlar kimlarning qo'lidan o'tib kitobxonga yetib boryapti, ularni nashrga tayyorlagan muharrirlar o'sha asar yozilgan xorijiy tilni biladimi yoki faqat tarjimonlikka bo'lgan ishonchiga asoslanadimi? Ingliz tilida tarjima qilindi, deb bosilayotgan asarlar tarjimasini asliyatga qiyoslab nashrga tayyorlaydigan muharrirlar adabiy-badiiy nashrlarda, nashriyotlarda bormi? Malakali muharrir qalami tegmagan, qanday o'girilgan bo'lsa shu zaylda chiqib ketayotgan tarjima asarlarining soni tobora ko'payib borayotgani, albatta, tashvishlanarli holat.

Yana bir masala, gazeta-jurnallar, nashriyotlarda bosilayotgan tarjima asarlar, kitoblarda ushbu asar xorijlik yozuvchi yoki shoirning qayerda, qachon, qaysi tilda nashr qilingan kitobi asosida amalga oshirilgani haqida hech qanday ma'lumot berilmaydi. Nashr madaniyatining bu oddiy talabiga rioya



etmaslikni also oqlab bo'lmaydi. Negaki, xorijlik adib asarining bir necha bor turli saviyada bosilgan, to'ldirilgan, qisqartirilgan, qayta ishlangan nashrlar bo'lishi mumkin.

Bir asarni tarjima qilish jarayonida tarjimonidan nafaqat til bilimdoni, balki adabiyotshunos va elshunos bo'lish ham talab etiladi. Chunki muayyan xalqning madaniyati, assotsiativ tafakkurini chuqur bilmay, til boyligini yaxshi egallamay turib tarjimon badiiy til vositalarini to'g'ri tanlay olmaydi, tilning poetik jihatlarini his etmay, oqibatda tarjima to'g'ri va ta'sirchan chiqmaydi. Shu bilan birga tarjima qilayotgan davlatning butun bir madaniyati, yashash tarzini ham chuqur o'rganish zarur. Chunki yozilgan adabiyotlar asosan o'sha xalqning yashash tarziga bog'liq holda yozilgan bo'ladi. Tarjimonning butun o'y-xayoli bilish va qidirishda bo'lishi zarur. Asosiy maqsadi esa, madaniyat fenomenlarini yaqinlashtirish, tarjima tili vositasida tushunarli qilishdan iborat. Hozir tarjimonlar ko'payotgani quvonarli holat, biroq amalga oshirilayotgan tarjimalar sifati haqida o'ylashimiz zarur. Zamon talabi darajasiga tarjimonlarni tayyorlash uchun nafaqat tarjima tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha mukammal darslik, shuningdek, badiiy, ilmiy-texnik, idora ish uslubiga mos o'quv qo'llanmalari, ikki, uch va ko'p tilli lug'atlar yaratish talab etiladi. Hozircha chop etilgan ko'plab inglizcha-o'zbekcha, nemischa-o'zbekcha, fransuzcha-o'zbekcha lug'atlarning foydali jihatlari borligini unutmagan holda aytish kerakki, bu lug'atlar hali tarjimonlarning talabini qiniqtirmaydi. Endilikda katta izohli sinonimik va qomusiy lug'atlar kerak, hatto tarjima nazariyasi va amaliyotiga doir izohli lug'at tayyorlashni ham o'ylash zarur. Negaki, bu qulayliklarning rivojlanishi, so'nggi yillarda sifatli hamda saviyali tarjima asarlarning soni ko'payishiga sabab bo'la oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish va bu sohani rivojlantirishga harakat qilish har tomonlama foya olib kelishiga sabab bo'la oladi. Tarjimonlik sohasi sababli xalqaro hamkorlik munosabatlari rivojlanishi hamda turli xil boshqa tillardan kirib kelgan asarlarni yoshlarga taqqdim etish, ularning dunyo qarashi, teran va izchil fikr yuritishiga olib keladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ahmad Otaboyev. "O'zbekiston adabiyot va san'at gazetasi" 2014-yil 10- son
2. Zarif Quvonov. XXI asr tilshunosligi va tarjimashunosligining dolzarb muammolari; nazariya, amaliyot, innovatsiya, 2020